



## ARTICLE INFO

Received: 01<sup>st</sup> January 2023

Accepted: 10<sup>th</sup> January 2023

Online: 11<sup>th</sup> January 2023

## KEY WORDS

Jamiyat, metod, bog'lanishli nutq, tinglovchi, ko'chma ma'no, uzviylashtirilgan ta'lim.

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI NUTQINI O'STIRISHDA XALQ IBORALARINING O'RNI

<sup>1</sup>Shodiya Ganiyeva

FarDU boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha PhD,

<sup>2</sup>G'ofurova Madina

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7524961>

## ABSTRACT

*Ushbu maqolada xalq iboralarini qo'llash orqali o'quvchilar nutqini o'stirishga doir bo'lgan bir qator masalalar tahlil qilindi. Iboralarning nutq jarayonidagi o'rni, ahamiyati kabi masalalar yoritildi.*

Har qanday tirik mavjudot o'zini qurshab turgan muhitga moslasha boradi. Bu jarayon uning olamni sezgi a'zolari vositasida bilishi orqali amalga oshiriladi. Demak, bilish har qanday jonli mavjudotga xos xususiyatdir. Jonli mavjudot ichida inson o'zining bilish imkoniyatlarining kengligi nuqtai nazaridan alohida ajralib turadi.

Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir.

Nutq o'stirish o'zi nima? Agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishini, bog'lanishli nutqni) faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, o'quvchilarning tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo'llash tushuniladi. Shuning uchun ham grammatika va imlo dasturi tovushlar va harflar, so'z, gap, bog'lanishli nutq kabi qismlarni o'z ichiga olgan.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek o'quvchilar nutqini o'stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki yoki yozma bayon qilish xohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi. Shunday ekan, o'quvchilar nutqini o'stirishning ikkinchi sharti nutqqa oid mashqlarning materiali haqida bo'lib, o'quvchi nutqi mazmunli bo'lishi uchun g'amxo'rlik qilish hisoblanadi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so'z, so'z birikmalari, gap, nutq birliklari yordamida ifodalansagina tushunarli bo'ladi. O'quvchilarga til namunalarini berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan o'z tajribasida foydalanish natijasida bolalarda ta'lim metodikasi asoslanadigan ongli ravishda "tilni sezish"



Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq o'strishida xalq yaratgan iboralar o'zni beqiyosdir. O'quvchi dastlab ibora va u haqida tushunchaga ega bo'lmaydi. Iboralar maqol, matal va aforizmlar singari turg'un birikma hisoblanadi va nutqqa tayyor holda olib kiriladi. Iboralarda maqollarda bo'lgani kabi, umumlashgan ma'no ifoda etiladi.

3-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi darsligida berilgan "Virtual voqelik" publitsistik matni "Bolalar ensklopediyasi" dan olingan. Unda *orzusi amalga oshdi, miya haqiqatan sodir bo'lyapti deb qabul qiladi, pastga sho'ng'ish, haqiqiy hayotdan uzilib qoladi* kabi tushunilishi qiyin bo'lgan birikmalar berilgan. Bilamizki, iboraning ma'nosi bir so'zga teng bo'ladi. Yuqoridagi matnda berilgan *haqiqiy hayotdan uzilib qoladi* frazeologik birikmasi "aqliy holat" semasiga ega bo'lib, "unutadi", "esdan chiqaradi", "yodidan ko'tariladi" kabi birliklarga teng bo'lishi mumkin.

Xudoyberdi To'xtaboyev qalamiga mansub "Mehribon aka-ukalar" (3-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi darsligida) hikoyasida *omonatini topshirgan, xirmonga bosishibdi, xayolidan o'tkazibdi* kabi qator iboralar unumli qo'llangan. O'quvchilarga bu birikmalar mazmunini tushuntirish va bu haqida ma'lumotlar berish orqali so'z boyligi oshirib boriladi. Demak, xalq iboralari so'z boyligini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega ekan.

Iboralarning ma'nosini tushuntirish o'quvchilar lug'atini boyitadi, nutqini o'stiradi. Masalan, *Jamila xola ham Hamida kelguday bo'lsa, "qizim-qizim"* deb boshiga ko'taradi. Ushbu gapda *boshiga ko'tarmoq* iborasi qo'llanib, bu ibora "ijtimoiy holat" semasiga ega. Bola iboraning ma'nosini yuksak darajada izzat, hurmat qilmoq deb tushunishi kerak.

Iboraning ma'nosini tushuntirish juda kam vaqt olishi va darsning asosiy mavzusidan o'quvchilar diqqatini chalg'itmasligi kerak. Buning uchun o'qituvchi har bir darsga tayyorlanish jarayonida ma'nosi tushuntirilishi lozim bo'lgan iboralarni, uni tushuntirishning eng qulay usullarini va darsning qaysi o'rnida tushuntirishni belgilab oladi. Boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlar vositasida darslarni olib borish bolalarning aqliy faoliyatiga tezkor kirishishi va adaptatsiya hosil qilishlariga ham ko'mak beradi. Yangi dars boshlanishida yoki o'tilgan darsni mustahkamlash paytida didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish mumkin. Boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlarning ahamiyati beqiyosdir.

O'qish kitoblaridagi matnlarda birinchi marta uchragan, bolalar ma'nosini bilmaydigan ayrim iboralar matnni o'qishdan oldin tushuntiriladi.

Iboralarning eng asosiy belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Ibora ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topadi.
2. Ibora yaxlit bir lug'aviy ma'noni ifodalaydi.
3. Iboraning tarkibidagi so'zlar o'z leksik ma'nolarini yo'qotgan bo'ladi.
4. Ibora turg'un birikma sifatida erkin birikma bilan faqat omonimlik holatda bo'lishi mumkin.
5. Ibora gapning tarkibida yaxlitligicha bir sintaktik vazifa bajaradi.
6. Iborani boshqa tillarga so'zma-so'z tarjima qilish mumkin emas, yaxlit tarjima qilinadi.

Boshlang'ich ta'limda ona tili, o'qish darslarida, xususan, iboralarni o'rgatish va ularni nutq jarayonida qo'llash uzviylashtirilgan ta'lim dasturida ham o'z ifodasini topgan. Ta'kidlanganidek, o'quvchilar lug'at boyligini oshirish, mazmunli va chiroyli so'zlashishlarida xalq iboralarining o'zni beqiyosdir.

## References:



1. Ergasheva D. (2022). BARKAMOL AVLODNI MA'NAVIY YETUK QILIB TARBIYALASHDA BOSHLANG 'ICH TA'LIMNING O 'RNI. Science and innovation, 1(B4), 139-141.
2. Ganieva S. A. THE POSITION OF PHRASEOLOGISMS IN THE PAREMIOLOGICAL SYSTEM AND THEIR SEMANTIC STRUCTURE //Наука и технологии. – 2013. – Т. 1. – №. 3. – С. 35-41.
3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent. 2000.
4. Sobirjonovich, S. I. (2022). EASTERN THINKERS' VIEWS ON EVERYWHERE EDUCATION OF CHILDREN. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMiy JURNALI, 309-314.
5. Yo'ldoshov M. Cho'lponning xalq iboralaridan foydalanish mahorati.// O'zbek tili va adabiyoti.1999. 6-son 59-bet
6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
7. Ганиева Д.А. (2022). СИНКРЕТИЗМ И ПОЛИФУНКЦИОНАЛЬНОСТЬ ГРАММАТИЧЕСКОЙ КАТЕГОРИИ НАКЛОНЕНИЯ. НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ЖУРНАЛ ФИЛОЛОГИЧЕСКИХ НАУК , 3 (10), 67-74.
8. Ганиева Ш. Ўзбек фразеологизмларининг структур тадқиқи. Тошкент: Фан, 2013
9. Искандарова Ш. М., Худайкулова У. А. ВЫРАЖЕНИЕ ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫХ СЕМ В ЗАГАДКАХ //Ученый XXI века. – 2016. – С. 31.
10. Хамракулов Ж. Б. Анализ физической подготовленности старших школьников к службе в Вооруженных Силах //Наука сегодня: теоретические и практические аспекты. – 2020. – С. 31-33.